

YANGI O'ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL KAPITAL VA YOSHLAR SIYOSATINING STRATEGIK AHAMIYATI

To'xtamurodova Shahina Olim qizi

Navoiy davlat universiteti Tarix
fakulteti Falsafa yo'nalishi 1-kurs talabasi
Tel: +99893-950-55-95

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston g'oyasining mazmun-mohiyati, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari hamda yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish masalalari yoritilgan. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, kredit-modul tizimi hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy kasblarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion fikrlaydigan, ma'naviy yetuk va raqobatdosh yoshlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omili ekani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, intellektual avlod, ta'lim tizimi, iqtisodiyot, innovatsiya, yoshlar salohiyati

Аннотация. В данной статье раскрываются сущность и содержание идеи “Новый Узбекистан”, а также рассматриваются процессы модернизации системы образования и вопросы повышения интеллектуального потенциала молодежи. Проанализированы приоритетные направления Концепции развития системы высшего образования до 2030 года, интеграция образования науки и производства, внедрение кредитно-модульной системы, а также значение современных профессий в условиях цифровой экономики. Кроме того обосновано, что инновационно мыслящая духовно зрелая и конкурентоспособная молодежь является важнейшим фактором развития Нового Узбекистана

Ключевые слова: Новый Узбекистан, интеллектуальное поколение, система образования, цифровая экономика, инновации, потенциал молодежи

Abstract. This article explores the essence and content of the idea of the New Uzbekistan, as well as the processes of modernizing the education system and enhancing the intellectual potential of youth. It analyzes the priority directions of the Concept for the Development of the Higher Education System until 2030, the integration of education, science and production, the implementation of the credit-module system and the importance of modern professions in the context of the digital economy. Furthermore, it substantiates that innovative, spiritually mature, and competitive youth are a key factor in the development of New Uzbekistan

Keywords: *New Uzbekistan, intellectual generatrion, education system, digital economy, innovation, youth potential*

Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur singib bormoqda. Mazkur g‘oya nafaqat ijtimoiy-siyosiy islohotlarni, balki ta’lim, ma’naviyat va iqtisodiyot sohalarida tub o‘zgarishlarni ham anglatadi. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida e’tirof etilmoqda.

Davlat taraqqiyoti bevosita bilimli, tashabbuskor va zamonaviy fikrlaydigan yoshlar bilan bog‘liq. Shu bois ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro talablarga moslashtirish dolzarb masalaga aylangan.

Ta’lim millat kelajagining poydevori hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, 2019-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”[2] mamlakat ta’lim siyosatida muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur hujjatda oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilangan:

- ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish;
- o‘quv rejalari va dasturlar mazmunini amaliyotga yo‘naltirish;
- kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;
- oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o‘rnini mustahkamlash[2].

Mazkur islohotlar ta’lim sifatini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston poydevori – bu zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, mustaqil fikrlaydigan yoshlar hisoblanadi”[1]. Ushbu fikr inson kapitalining strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Intellektual avlod deganda nafaqat nazariy bilimga ega, balki amaliy ko‘nikmalarni puxta egallagan, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega, tashabbuskor yoshlar tushuniladi. Bunday yoshlar:

- ilmiy-texnik yangiliklar yaratishga intiladi;
- startap va tadbirkorlik faoliyatiga qiziqadi;
- global raqobat sharoitida o‘z o‘rnini topa oladi;
- ma’naviy yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli bo‘ladi.

Shu bois intellektual salohiyatni oshirish ta’lim va tarbiyaning uzviy uyg‘unligini talab etadi.

Hozirgi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjatdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda:

- sun’iy intellekt texnologiyalari;
- blokcheyn tizimlari;
- kriptο-aktivlar aylanmasi;
- smart-kontraktlar;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- kraudfanding va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari [3].

Mazkur sohalar bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash zamon talabi hisoblanadi. Chunki zamonaviy iqtisodiyot bilim va innovatsiyalarga asoslanadi. Yoshlarning chet tillarini, dasturlashni va raqamli texnologiyalarni egallashi ularning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta‘lim sifati iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili sifatida e‘tirof etiladi. Chunki:

- ta‘lim – bilim manbai;
- bilim – innovatsiya asosi;
- innovatsiya – iqtisodiy o‘rish omilidir [4].

Shu bois davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonlarda yoshlarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion fikrlaydigan, ijtimoiy mas‘uliyatli va ma‘naviy yetuk yoshlar jamiyat barqaror rivojlanishining kafolati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, intellektual avlodni shakllantirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining strategik yo‘nalishidir. Ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlash, yoshlarning innovatsion salohiyatini qo‘llab-quvvatlash – mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Yangi O‘zbekistonning kelajagi bilimli, tafakkuri keng, tashabbuskor va ma‘naviy barkamol yoshlar qo‘lidir. Shunday ekan, doimiy ilm olish, zamonaviy kasblarni egallash va innovatsion fikrlash har bir yoshning ustuvor vazifasiga aylanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sh. Mirziyoyev. –Toshkent O‘zbekiston, 2021.-Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –B. 45-52.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” 3-10-bandlar

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni, 2020-yil.12-18-bandlar

4. Sh.Mirziyoyev. Toshkent: O‘zbekiston, 2022.-Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, - B. 176-177.